

O‘ZBEK TILIDA MORFEMALARNING PARADIGMATIK MUNOSABATLARI

Xaydarova Iroda Anarbayevna
SamDChTI tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tilida morfemalar, ularning paradigmatic munosabati, paradigmatic qator, paradigmatic munosabatlarning sintagmatic munosabatlar bilan bog‘liqligi masalalari haqida mulohazalar bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *til birliklari, morfema, paradigma, paradigmatic munosabat, paradigmatic qator, sintagmatic munosabatlar.*

ПАРАДИГМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ МОРФЕМ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Хайдарова Ирода Анарбаевна
Базовый докторант СамГИИЯ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются морфемы в узбекском языке, их парадигматические отношения, парадигматический ряд и взаимосвязь парадигматических отношений с синтагматическими отношениями.*

Ключевые слова: *языковые единицы, морфема, парадигма, парадигматическое отношение, парадигматический ряд, синтагматические отношения.*

PARADIGMATIC RELATIONS OF MORPHEMES IN THE UZBEK LANGUAGE

Khaydarova Iroda Anarbayevna
*Basic doctoral student of the Samarkand State
Institute of Foreign Languages*

Abstract: *This article presents reflections on the issues of morphemes in the Uzbek language, their paradigmatic relations, paradigmatic series, the connection of paradigmatic relations with syntagmatic relations.*

Keywords: *linguistic units, morpheme, paradigm, paradigmatic relation, paradigmatic series, syntagmatic relations.*

Til o‘ziga xos murakkab tizim bo‘lib, bu hodisaning mohiyatini yoritish, o‘z navbatida, tizimli yondashuvlarni talab qiladi. Til birliklarini paradigmatic va sintagmatic tadqiq etish tilni tizimli o‘rganish yo‘llaridandir. Paradigmatika kengroq ma’noda til tizimi bilan bir xil bo‘lib, til sinflari – paradigmalar yig‘indisi sifatida tushuniladi; lingvistik jarayon va matn tushunchasining sinonimi sifatida sintagmatickaga qarama-qarshi qo‘yiladi. Demak, paradigmatic – til fanining paradigmatic munosabatlar, ularni tasniflash, harakat doirasini aniqlash bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi.

Tillarda har xil turdagi munosabatlar mavjudligi haqidagi fikrlar allaqachon I.A.Boduen de Kurtene va N.V.Krushevskiy asarlarida ifodalangan. I.A.Boduen de Kurtene birliklarni taqqoslashda va ular ketma-ket almashtirilganda “gorizontal” va “vertikal” munosabatlar o‘rtasidagi farqni ta’kidlagan bo‘lsa, ikkinchisi assotsiatsiyalar orasidagi farqni tutashuv va o‘xshashlik bilan ta’kidladi. N.V.Krushevskiy ham o‘xshashlik va yaqinlikka asoslangan assotsiatsiyalar bir-biriga ta’sir qiladi va til taraqqiyotini belgilaydi, degan fikrni ilgari surgan.

Darhaqiqat, til va nutqunsurlari, paradigmatic nuqtai nazaridan qaralsa, istalgan daraja nisbatan bir xil murakkablik pog‘onasiga ega bo‘lgan unsurlarning majmuidan tarkib topadi. Paradigma (yun.o‘rnak, namuna) - til birliklari, grammatik shakllarning umumiy ma’nosiga ko‘ra qo‘shiluvchi, xususiy ma’nosiga ko‘ra farqlanuvchi tizimi ekan, o‘zbek paradigmatic munosabat bir paradigmaga birlashuvchi til unsurlarining o‘zaro aloqasi sifatida o‘ziga xoslik qozonadi. Masalan, fonemalar o‘zlarining umumiy belgilariga ko‘ra ma’lum guruhlariga birlashishi (masalan, i fonemasi yuqori torlik xususiyati bilan u fonemasiga, til oldilik va lablanmaganlik xususiyati bilan e, a fonemalari bilan birlashadi; d fonemasi artikulyatsiya o‘rniga ko‘ra t, z, s, j, ch, sh, l, n, r fonemalari bilan, jaranglilik xususiyatiga ko‘ra b, g, z, v, j, g, m, n, l, r, y fonemalari bilan) mumkin. Xuddi shuningdek, morfemalar ham muayyan belgilariga ko‘ra ma’lum bir guruhlariga birlashadi.

Soʻzning leksik birlik sifatidagi paradigmatic maʼnosining miqdori u doimo munosabatga kirisha oladigan leksik guruhning miqdoriga bogʻliq boʻladi. Masalan, ona soʻzi jins munosabatiga koʻra opa, singil, xola, amma, buvi, oiladagi maqomiga koʻra ota, farzandga yaqinlik darajasiga koʻra tarbiyachi, ustoz, doʻst soʻzlari bilan birikishi mumkin. Shuni ham hisobga olsih kerakki, til taraqqiyoti va oʻzaro aloqalar sabab tillarning lugʻat boyligida oʻzgarishlar boʻladi va bu hodisani paradigmatic munosabatlarni belgilashda hisobga olish joiz. Agar “ona” misolida olsak, bu soʻz boshqa bir leksik maʼnosi bilan “maselko”, “shedroye leto”, “prezident” va boshqa bir qator soʻzlar bilan paradigma hosil qilishi mumkin.

Morfologiyada nutqning oʻzgaruvchan qismlarini yoki ularning kategoriyalarini tavsiflovchi paradigmalariga oid tushuncha "soʻzning oʻzgarishi" va "shakllanishi" deb sharhlanishi mumkin.

Til birliklarining shakli yoki mantiqiy-semantik belgisiga koʻra oʻzaro birlashuvi *fanda assotsiatsiya deb*, til **birliklari, grammatik shakllarning umumiy maʼnosiga koʻra birlashuvchi, xususiy maʼnosiga koʻra farqlanuvchi tizimi paradigma deb**, maʼlum umumiylik xususiyati asosida birlashib, ayrim farqli (oʻziga xos) xususiyati bilan qarama-qarshi turadigan va nutqiy aloqa talablariga koʻra biri ikkinchisi bilan almashina oladigan birliklar (unsurlar) - **paradigmatic qator deb oʻrganiladi**. Manbalarda **qayd etiladiki**, butunning qismlari aro kuzatilgan vertikal (ustma-ust) munosabati paradigmatic qonuniyatga oiddir¹¹⁹. **Shuningdek**, lingvistik nuqtayi nazardan *oppozitsiya* (qarama-qarshilik) tushunchasi ham isteʼmolga kirib keldi¹²⁰. Mazkur qarash mohiyati asosida tahlil obyektiga yondashilganda, *paradigma* oʻzaro uzviy aloqador birliklar jamlanmasini nazarda tutadigan, *oppozitsiya* esa oʻzaro ziddiyatga asoslangan birliklar qatorini ifodalaydigan munosabat ekani koʻzga tashlanadi. Ushbu qarama-qarshilik bir paradigmatic guruh birliklariaro kuzatiladi. Otlarda egalik shakllarining paradigmasiga eʼtibor qilinsa, shu oʻrinning oʻzida ham pogʻonali birlashish koʻzga tashlanadi. Jumladan, -m(-im) shakli birlikni ifodalashi jihatidan – ng (-ing), -i (-si) shakllari bilan umumiylikka ega boʻlsa, soʻzlovchiga tegishlilikni ifodalashi nuqtayi nazaridan –miz (-imiz) shakli bilan yondosh turadi:

¹¹⁹ Qarang: Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент, 2012.– Б. 34.

¹²⁰ Qarang: Бушуй Т.А., Сафаров III.C. Оʻsha asar. – Б. 145-146. (191 бет.)

Shaxs-son	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	-m (-im)	-miz (-imiz)
II shaxs	-ng (-ing)	-ng (-ingiz)
III shaxs	-i (-si)	-(lar)i

Fe'lga xos eng faol morfemalardan biri shaxs-son qo'shimchasi ham son yoki shaxsga ishora qilishi jihatidan shunday xususiyatlarga ega, shu bilan birga, bu qo'shimchalarning paradigmatic qatori bevosita gorizontali yo'nalishda sintagmatik munosabatga kirishayotgan birliklarka bog'liq tarzda birlashuvi kuzatiladi. Shu nuqtayi nazardan hozirgi o'zbek tilida shaxs-son ko'rsatkichining 3 ta guruhi farqlanadi: **1)** -man, -san, -Ø yoki -di/-ti, -miz, -siz(lar), -Ø(lar) yoki -di(lar)/-ti(lar) guruhi -yap, -(i)b, -a/y, -yotir, -moqda, -gan/-kan/-qan, -moqchi ko'rsatkichidan keyin qo'shiladi: Men borganman. Men boryapman. Men boraman; **2)** -m, -ng, -Ø; -k, -ngiz, --Ø(lar) guruhi -di, edi, -sa ko'rsatkichidan keyin qo'shiladi: Men bordim. Men borgan edim. Men borsam; **3)** buyruq-istak mayli bilan birgalikda ifodalanadi: bor, boring, borsin, boray, boraylik kabi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, yuqorida tahlilga tortilgan qo'shimcha morfemalarning har ikkisida mavjud bir xil shakllar)-m, -miz, -ng, -ngiz kabi) otga va fe'lga xosligi va grammatik ma'nosi bilan boshqa-boshqa shakllar ekanligi sababli biri ikkinchisining paradigmatic qatorida ishtirok eta olmaydi. Ko'rinadiki, morfemaning shakli faqat uning tashqi belgisi bilan aniqlanmaydi, balki mazkur birlikning paradigmadagi o'rni bilan, shuningdek, sintagmatik qatordagi qiymati bilan aniqlanadi.

Xulosa qilish mumkinki, morfemalar muayyan tilning ichki xususiyatlaridan kelib chiqib tahlil va talqin qilinishi, paradigmatic va sintagmatik munosabatlar aniqlanayotganda uning shakliy ifodasi va ma'noviy jihatlari hisobga olinishi lozim.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент, 2012.– Б. 34.
2. Бушуй Т.А., Сафаров Ш.С. О‘sha asar. – В. 145-146. (191 бет.)
3. Hojiyev A. O‘zbek tilida so‘z yasalishi tizimi. – Toshkent, 2007;
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent, 2006. –B.115.
5. Turniyozov N. Tilshunoslikka kirish. –Samarqand, 2006. – 80 b.;
6. Turobov A. Tilshunoslik nazariyasi. –Samarqand, 2022. (–B. 233.) –254 b.
7. Usmonova M. O‘zbek tilida soddalashish. – Toshkent, 2016.
8. Xayrullayev X. Tilshunoslik asoslari. – Samarqand, 2024. (265 б.) – Б. 175.
9. Xayrullayev X. Tilshunoslik nazariyasi. – Samarqand, 2022. –B.73. (– 254 b.)
10. Xaydarova I.A. So‘z tarkibi komponentlarining lingvistik tabiati. *Til va adabiyot* ilmiy-metodik elektron jurnali. 2024-yil 11-son.- B. 44-45.